

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, B.Qurbonova	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
T.Egamberdieva, N.Gafurova	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari	13
N.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari	17
I.Siddiqov	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida	21
M.Barakayev, X.O'rinov	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlarini.....	26
X.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	31
N.Xodjibolayeva	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati	39
S.Uraimov	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili	44
D.Malikova	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish	59
J.Qurbonov	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
M.G'ofurova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari	69
G.Maxsudova	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati	74
V.G'aniyeva	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi	78
Sh.Karimova	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi	82
F.Raximova	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari	85
D.Rafikova, Z.Ibroximova	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
U.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari	92

O‘YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI
СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ИГРЫ КАК ДЕТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ESSENCE AND FEATURES OF THE GAME AS A CHILDREN’S ACTIVITY

G‘aniyeva Vazira Yusufovna¹

¹G‘aniyeva Vazira Yusufovna

– Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg‘ulotdir. O‘yin - bolalarning o‘zaro munosabatini yo‘lga soladi, his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta‘lim-tarbiya berish jarayoniga o‘yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg‘ulotlarni jonlantiradi. Maqolada o‘yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o‘ziga xosligi haqida ayrim qarashlar va yechimlar keltirilgan.

Аннотация

Игра способствует взаимодействию детей, развивает их чувства и укрепляет их свободу. Поэтому включение в учебный процесс игровых элементов и проблемных ситуаций оживляет обучение. В статье представлены некоторые взгляды и решения о сущности и своеобразии игры как деятельности ребенка.

Abstract

Game is the main and most favorite pastime of preschool children. Therefore, the introduction of game elements and problem situations in the educational process enlivens learning. The article presents some views and decisions about the essence and originality of the game as a child’s activity.

Kalit so‘zlar: o‘yin, faoliyat, tarbiyachi, bolalar, vazifa, tarbiya, ta‘lim, aloqa, ijodiy faoliyat.

Ключевые слова: игра, деятельность, воспитатель, дети, задание, обучение, воспитание, общение, творческая деятельность.

Key words: game, activity, educator, children, task, training, education, communication, creative activity.

KIRISH

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg‘ulotdir. O‘yin - bolalarning o‘zaro munosabatini yo‘lga soladi, his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta‘lim-tarbiya berish jarayoniga o‘yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg‘ulotlarni jonlantiradi. Ta‘lim va tarbiya berish jarayonida har xil o‘yinlardan, og‘zaki, stol ustida, harakatli, ijodiy, xayolan sayohat, o‘yin viktorinadan foydalanish, muammoli holatlar keltirib chiqarish, yechimini topish, bahslashish, natijaga erishish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta‘limning o‘yin jarayonini, ayniqsa, ochiq havoda amalga oshirish bolalarda kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirib, ularni ranglarni, shakllarning katta-kichikligini, hidini, ta‘mini aniqlashga, umuman, sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishga o‘rgatib boradi. O‘yin faoliyati nazariyasi go‘dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L.Figurin, M.P.Denisova, M.Yu.Kistayakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, Ye.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir. S.Fayans tajribasida go‘dakka chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar 9 sm masofadan ko‘rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo‘lganida bolaning intilishi, qo‘l cho‘zishi sustlashgan, cho‘zilishi, ixtiyorsiz harakati mutlaqo so‘ngan. U o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofaga qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin. M.Yu.Kistayakovskaya ma‘lumotiga ko‘ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o‘giradi, hatto, qo‘rqib yig‘lab yuboradi. Bolada o‘zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog‘lanib qolishi sodir bo‘ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko‘rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo‘l-oyog‘ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to‘lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-urug‘lariga, hatto qo‘ni -qo‘shnilarga ham bog‘lanib (o‘rganib) ko‘nikib qoladi. Taxminan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o‘yin faoliyatini boshlaydi. O‘yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik tuyg‘ulari avval faqat kattalar ishtirokida namoyon bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan o‘yinning o‘zi bolaga quvonch bag‘ishlaydi. Go‘dak bir yoshga

yaqinlashgan sari kattalarning xatti-harakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularga ko'mak berish ishtiyoqi tug'iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o'ta boshlaydi. Ma'lum hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lamini kengaytirishga yordam beradi. Bolaning umum-psixologik taraqqiyoti faqat o'yin jarayonidagi (A.Leontev) amalga oshirishini inobatga olib o'yinlarining mazmunan boyishiga katta e'tibor qaratishimiz lozim. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti ishida katta o'rin egallaydi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli trener va shifokor E.A.Arkin o'yinni "ruhiy vitamin" deb bekorga aytmagan. Bolalarning to'laqonli jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O'yin jarayonida bolaning jismoniy o'sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o'yinlarning bolalarga yetarli suratda zavq tug'dirishini, ularda faollik hosil bo'lishini, bu o'yinlar turli xil harakatlarni o'z ichiga olishini, serharakat o'yinlar ketidan kam harakatli o'yinlarga o'tilishini ta'minlash zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'yin - bolalarning o'zaro munosabatini yo'lga soladi, his-tuyg'ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish jarayoniga o'yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg'ulotlarni jonlantiradi. Maqolada o'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi haqida ayrim qarashlar va yechimlar masalasiga e'tibor qaratilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'yin faoliyati bola hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgani holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar o'yinning ahamiyati, qadri, uning shartlilikini hamda ijtimoiy xulqni shakllantirishda shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilab olishi, uning muomala chog'idagi xatti-harakatini aniqlab olishi hamda miyaning keyingi o'rganiladigan mavzuga tayyorlanishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Tug'ilgandan boshlab to 3 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning aqliy qobiliyatlari rivojlanayotgan davrda o'yin juda muhim ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. O'yin inson o'zligining namoyon qilishi, uning takomillashuvi usulidir. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: Bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi, o'yin davrida bolaning xayoli, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning syujetli va rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyiq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo'naltirishini talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya'ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur taqlid qiladigan bo'ladilar. Syujetli va rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlar o'yin jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo'lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatleri ham rivojlanadi. Turli yoshdagi bog'cha bolalarining o'yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya'ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, xarakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. Shu narsa xarakterliki, bog'cha yoshidagi bolalarning turli - tuman o'yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi. Roli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifali va ishlarni amalda bevosita bajaradilar, shu boisdan, o'yin voqealari, oilaviy turmush hodisalari shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'u, o'zaro muomala va muloqotlarning xususiyatlarni o'ziga va o'zgalarga atrof muhitiga munosabatlarni yaqqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalarda ham foydalaniladi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida roli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinni mazmunini A.P.Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, roli o'yin ishtirokchilarni safi yosh ulg'ayishiga qarab jinsiy tafovutlariga binoan kengayib boradi. Uch yoshli bolalar ikki uchtdan guruhga birlashib, uch besh daqiqa birga o'ynab oladilar, 4-5 yoshli guruhi 2-3tdan

ishtirokchidan iborat bo'lib ularning hamkorligidagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi. 6-7 yoshli bolalarda roli o'yini guruh yoki jamoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, avval rollar taqsimlanadi, o'yining qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o'yin davomida bolalar bir –birlarni harakatini qatq nazorat qiladilar).

Bolani o'yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o'z shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir, shuningdek, jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo'yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

1) o'yin faoliyatida bola turli harakatlarni to'laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko'rsatishga ishtiyoqmand bo'ladi;

2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi. Bola o'sib borgan sayin narsalar va o'yinchoqlarning nomini o'zgartirish, yangi nom bilan atash yengillashadi. Shuningdek, faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o'zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo'llash imkoniyati ham vujudga keladi. O'yin faoliyatida foydalaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. o'yin faoliyatida narsalar nomini o'zgartirish o'zining psixologik mohiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so'z bilan predmetning o'zaro munosabatida ularga uzviy bog'liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning xatti-harakati qanchalik ixcham va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi. Har qanday o'yinning va o'yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o'zaro munosabatini, muomalasini o'ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko'ra, o'yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi. Shunday qilib, psixologik adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bolalar roli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin his-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar;

3) roli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tatbiq qiladi;

4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarli. o'yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kasb etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki:

birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi.

Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan, o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) subyekt (jonzot) ongining dastlabki obyekt darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga, u yoki bu personajga xos qat'iy yurish

PEDAGOGIKA

turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

XULOSA

Atoqli trener va shifokor E.A.Arkin o'yinni "Ruhiy vitamin" deb bekorga aytmagan. Bolalarning to'laqonli jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O'yin jarayonida bolaning jismoniy o'sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Harakatli o'yinlar bolalarda quvnoqlikni oshirishga yordam beradi, o'zaro munosabatlar, his-tuyg'ularni tarbiyalaydi. O'yin qoidalarini bajara olish malakalari, jasurlik, odillik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Mashg'ulot, sayr va kunning turli jarayonlarida amalga oshiriladigan harakatli o'yinlar bola shaxsi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: Bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi, o'yin davrida bolaning xayoli, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O'RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)
2. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway
3. Azizova.Z.F. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatleri shakllantirish Avtoref. p.f.n T:2020-52b
4. Azarov Yu.P. Masterstvo vospitatel'ya. M.: "Prosvesheniye",1971.-126 b
5. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -175-b.